

## “IRODA” LEKSEMASINING SEMANTIK STRUKTURASI

Ashurova Zarina A'loqul qizi

Navoiy davlat pedagogika instituti

O'zbek tili va adabiyoti fakultet 3-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10429305>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada “iroda” umumiy ma'noli leksemasi va unga aloqador bo'lgan so'zlar semantik-struktur jihatdan tahlil qilindi. Ma'naviyat maydoniga kiruvchi "sabr" ma'noviy guruhining differensial va integral xususiyatlari yoritib berildi.

**Kalit so'zlar:** sabr, toqat, ma'naviyat, semantik struktura, chidam, semantik uya.

### SEMANTIC STRUCTURE OF THE LEXEMA "WILL".

**Abstract.** In this article, the general lexeme "will" and the words related to it were analyzed semantically and structurally. The differential and integral features of the "sabr" spiritual group, which belongs to the field of spirituality, were highlighted.

**Key words:** patience, tolerance, spirituality, semantic structure, endurance, semantic nest.

### СЕМАНТИЧЕСКАЯ СТРУКТУРА ЛЕКСЕМЫ "ВОЛЯ".

**Аннотация.** В данной статье общая лексема «воля» и родственные ей слова были проанализированы семантически и структурно. Выделены дифференциальные и интегральные особенности духовной группы «сabr», относящейся к сфере духовности.

**Ключевые слова:** терпение, толерантность, духовность, смысловая структура, выносливость, смысловое гнездо.

Ma'lumki, tilshunoslikning semasiologiya sohasidagi semantik maydon, sema, semema va semantik struktura kabi atamalarning negizida shaxs nutqida foydalanuvchi so'z asosiy o'rin egallaydi. Bunda fanning asosiy maqsadi leksemalarning ma'no taraqqiyotini o'rganish bo'lsa, ikkinchi tomondan yangicha ma'no qirralariga ega bo'lgan leksemalarni tahlil qilishdan iboratdir. Leksema shakl va mazmun planiga ega bo'lgan til birligi bo'lib, u ifodalaydigan ma'no semasiologiyaning obyektini sanaladi.

Tilda mavjud bo'lgan har qanday so'z semantik maydonni hosil qila olmaydi. Shunday ekan semantik maydon hosil qiluvchi so'zlarning variantlarini qidirish, o'xshash va farqli jihatlarini aniqlash, bugungi kun semasiologiya sohasidagi o'rganilishi kerak bo'lgan masaladir. Bir-biriga ma'no-mazmun jihatdan yaqin turuvchi, ayrim so'zlar alohida tahlil qilib ko'rilganda, yangi ma'no qirralarini yuzaga keltirishi mumkin.

Misol sifatida "**Sabr-toqatli bo'lish axloqi**" ma'naviy uyasi tarkibiga *chidam, sabr, toqat, sabrli, bardosh, iroda, qat'iyat, biror holat yoki hodisani bardosh bilan kutish, qanoat qilish, o'zini tiyish, g'am-kulfat, azob-uqubatlarga chidam* kabi leksemalar bir semantik ma'no asosida birlashadi. Demak, ushbu struktura tarkibidagi leksemalarni birlashtiruvchi yagona xususiyat "sabr", "iroda" leksemasi sanaladi. Ammo shunday vaziyatlar bo'ladiki, bu ma'noviy uya tarkibidagi so'zlar nutq sharoitida boshqa semantik ma'nolarni ham ifodalab kelishi mumkin.

"Sabr-toqatli bo'lish axloqi" ma'noviy guruhi "Ma'naviyat" maydoni leksik-semantik kategoriyasining tarkibiy qismi sanaladi. Ushbu leksemalar birlashib, bir umumiy paradigmani hosil qilgan. "Sabr" ma'noviy uyasining birlashtiruvchi integral xususiyat "insonni turli vaziyatlarda o'zini tuta olish qobiliyati, g'am-kulfatlarga qarshi irodali bo'lish" hisoblanadi. Shu

bilan bir qatorda, bu uya tarkibidagi leksemalarda differensial semalik xususiyati ham uchraydi. Masalan, "sabr ma'noviy guruhi"ga mansub bo'lgan "chidam", "bardosh", "iroda", "qat'iyat" leksemalarining differensial va integral xususiyatlarini qiyoslaymiz.

Sabr so'zi "chidam", "bardosh", "iroda", "qat'iyat" leksemalari bilan umumiy komponentda sinonimik munosabatga kirishadi. Ammo barchasi turli sathda xususiy ma'no anglatish xususiyatiga ega. "Qanoat", "chidam", "bardosh", "toqat" leksemalari "sabr" ma'noviy guruhining qiymatini oshirishga va kengaytirishga sabab bo'ladi. "Sabr" va "chidam" sinonimik qatordagi differensial va integral semalari leksik va sintaktik sathda namoyon bo'lishini qiyoslaymiz.

"O'zbek tilining izohli lug'ati"da "**sabr**" leksemasi "*chidam*", "*bardosh*", "*iroda*", "*qat'iyat*", "*tahammul*"<sup>1</sup> semalari bilan yoritilgan.

1. Biror holat yoki hodisani bardosh bilan kutish, qanoat qilish, o'zini tiyish.

2. G'am-kulfat, azob-musibatlarga chidash, toqat qilish, bardosh berish<sup>2</sup> ma'nolarini anglatgan. "Sabr" leksemasini etimologik jihatdan tahlil qiladigan bo'lsak, bu so'z arabcha sabr(un) shaklida qo'llanilgan. O'zbek tiliga sad undoshining s undoshiga almashinishi asosida kirib kelgan. Dastlab sabara fe'lidagi "toqatli bo'lish" ma'nosidan kelib chiqqan.<sup>3</sup> "O'zbek tilining izohli lug'atida" "**chidam**" leksemasining "*qiyinchilik*", "*dard*", "*alam*", "*azob*" va "*toqat qila olish qobiliyati*" semalari mavjud.

Ushbu leksema quyidagi ta'riflar bilan ifodalangan.

1. Tizim, toqat, sabr-bardosh

2. Uzoq vaqt xizmat qilish, chidash xususiyati, pishiqlik, puxtalik, mustahkamlash. Har ikkala leksemaning umumiy xususiyatlaridan kelib chiqib, ularning quyidagicha semantik farqlari yuzaga keldi. "Sabr" va "chidam" leksemalarining **integral semalari** "*toqat*", "*sabr*" "*chidam*" bo'lsa, **differensial semalari** "*chidam*" leksemasidagi "*pishiqlik*", "*puxtalik*", "*mustahkamlik*", "*uzoq muddat davomida xizmat qilish*" semalarining "sabr" leksemasida mavjud emasligidir. "Sabr" va "chidam" leksemalarining sintagmatik munosabatidagi integral semalari quyidagi birikmalarda ko'rinadi: "chidamli daraxt", "chidamli navlar", "chidamli kiyim".

Bu leksemalarni "sabr" leksemasi bilan almashtirib bo'lmaydi. Chunki "**chidam**" leksemasining "*uzoq xizmat qilish*" *chidam* xususiyati, "*pishiqlik*", "*puxtalik*", "*mustahkamlik*" semalari uni jonli va jonsiz tushunchalar bilan bog'liq holda birikmalar hosil qilishni ta'minlaydi.

"Sabr" leksemasi insonga xos xususiyat bo'lib, narsalarga nisbatan qo'llanilmaydi. Chunki "**sabr**" leksemasining "*biror holat yoki hodisani bardosh bilan kutish*", "*qanoatli bo'lish*", "*o'zini nafs yo'lidan tiyish*", "*g'am-kulfat, musibatli kunlarda matonatli bo'lish*", "*bardoshli bo'lish*" ma'naviy sifatlari bilan bog'liq holda qo'llaniladi. Har ikkala leksema so'z yasovchi qo'shimchalarni qabul qilganida, ma'noviy munosabatda o'zgarish sodir bo'ladi. "Chidamsiz" va "sabsiz" yasalmalari so'z ma'nosining differensial xususiyatini yanada oydinlashtiradi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, har bir semantik maydon tarkibidagi so'zlar bir-biri bilan mantiqiy bog'liqlikni yuzaga keltirsa ham nutq jarayonida alohida qo'llanilib, turli xil semantik

<sup>1</sup> Ўзбек тилининг изоҳли луғати: 80000 дан ортиқ сўз ва сўз бирикмаси. Ж. III. – Тошкент: ЎзМЭ, 2008. – Б. 411

<sup>2</sup> Ўзбек тилининг изоҳли луғати: 80000 дан ортиқ сўз ва сўз бирикмаси. Ж. III. – Тошкент: ЎзМЭ, 2008. – Б. 411

<sup>3</sup> III.Рахматуллаев. Узбек тилининг этимологик луғати. Тошкент.2003. Б-365-366

ma'nolarni ifodalab kelishi mumkin. "Sabr ma'naviy guruhi" tarkibiga kiruvchi "iroda" va unga bog'liq bo'lgan, "qat'iyat", "matonat", "toqat" va "chidam" leksemalari shaxs ma'naviyatini yuksaltirishda, inson ma'naviy olamini kengaytirishda va bugungi kun yoshlarida irodaviylik sifatlarini singdirishda muhim omil sanaladi.

#### **REFERENCES**

1. M. Hakimova "Semasiologiya"- Toshkent, 2008-y.
2. H. Sharipova " "Jasorat" leksemasining semantik-struktur, genetik xususiyatlari"- Toshkent, 2020-y.
3. A.Madvaliyev va E. Begmatov "O'zbek tilining izohli lug'ati"
4. Sh. Rahmatullayev "O'zbek tilining etimologik lug'ati"- Toshkent, 2004-y.